

## ALISHER NAVOIY RUBOIYLAR TAHLILI

*Buxoro davlat universiteti  
Filologiya fakulteti talabasi  
Nurillayeva Munisa*

**Annotatsiya:** Alisher Navoiyning “Devoni foniy” devonidagi ayrim ruboiylar tahlil qilingan, bu ruboiy misolidan ruboiy jnriga xos bo’lgan nazariy jihatlar ochib berilgan.

**Kalit so’zlar:** “Devoni foniy”, ruboiy, tezis, anitisintez, moddayi ruboiy, sintez, qofiya, kalit so’zlar.

Devoni Foniyy ("Foniyy devoni") — Alisher Navoiyning Foniyy taxallusi bilan forsiy tilda yozgan she’riy asarlari majmuasi. Navoiy bu devonini umrining so‘nggi yillarida, taxminan 1492—98 yillar orasida tuzgan. Ulug‘ shoir "Muhokamat ul-lug‘atayn" asarida o‘zining forsiy tildagi she’rlaridan Xoja Hofiz Sheroziy devoniga o‘xshatib ("Xoja Hofiz tavrida") devon tuzganini ma’lum qilarkan, shunday deydi: "Yana forsiy g‘azaliyot Xoja Hofiz tavridakim, jame’ suxanadolar va nazmpiyrolar nazarida mustahsan va matbu’dir, tartib beribmenkim, olti mingdan ab’yoti adadi ("baytlar miqdori") ko‘prakdurki, ko‘prak ul hazratu (Xoja Hofiz) she’riga tatabbu’ voqe’ bo‘lubdur".

"Devoni Foniyy"dagi she’rlarning katta qismini Navoiy salafлари va zamondoshlarining g‘azallariga yozilgan tatabbular tashkil etadi. 554 g‘azaldan 237 tasi Hofiz Sheroziy, 52 tasi Abdurahmon Jomip, 33 tasi Xusrav Dehlaviy, 25 tasi Sa’diy Sheroziy, 5 tasi Mavlono Kotibiy, 5 tasi Mavlono Shohiy, 4 tasi Kamol Xo‘jandiy va b. shoirlarning g‘azallariga bog‘langan. Bunda eng ko‘p g‘azal Hofiz Sheroziy g‘azallariga bog‘langani va uning she’rlaridan ilxomlanib yozilgani Navoiyning bu buyuk iste’dod egasiga ixlosi yuksak bo‘lganidan dalolat beradi. "Devoni Foniyy"dan Navoiy (Foniyy)ning o‘z original gazallari ham o‘rin olgan. Shoir ularni "Muxtara", "Ixtiro" deb atab, shu yo‘sinda tatabbulardan ajratib ko‘rsatgan. Shoirning tatabbu, muxtara she’rlarida ishq-muhabbat mavzui ham dunyoviy, ham tasavvufiy-majoziy uslublarda kuylangan.

To shud ba havoyi ishq on mohliqo  
Ashkam daryo az jigari xunpolo  
Giryad ba holi man dar on ranj-u ano,  
Murg ‘oni havoyi mohiyoni daryo.  
Tahlili:

**Kalit soʻzlar** :havoyi ishq, ashkam, jigar, xunpolo, giryad, ranj, murgʻon, mohiyo

Ul oy yuzlining ishqini havosi (koʻnglimga) tushgandan buyon  
 Koʻz yoshlarim daryo boʻlib, jigarim qonga toʻldi.  
 Osmondagi qushlar-u daryodagi baliqlar  
 Bu ranj-u mashaqqat ichra qolgan holimga yigʻilashi (shubhasiz).

Alisher Navoiyning ushbu ruboyisi fors-tojik tilida boʻlib, oshiqona yoʻnalishdagi ruboiy. Qofiyalanishi : taronayi ruboiy a-a-a-a (mohliqo, xunpolo, ranj-u ano, daryo) tarzda. Maʼlumki, mazkur janr talabiga koʻra, 4qismdan tashkil topadi. Ular;

**Tezida** ruboiydagi aytilmoqchi boʻlgan fikr bayon etilgan. Mashuqasining ishqini koʻngliga tushgandan beri nimala boʻlganini bayon etilgan.

**Antitezisda** birinchi misraga parallel fikr keltirilgan. Shu ishq dardidan koʻz yoshlarim daryo, jigarim qon boʻldi.

**Moddaiy ruboiy** toʻrtinchi misrani bogʻlovchi koʻprik vazifasini bajarib, osmondagi qushlar, daryodagi baliqlar holati tasvirlab koʻrsatadi.

**Sintez** yaʼni xulosalovchi, yakuniy misra. Bu ranj-alam bilan ular (qush, baliqlar) holiga yigʻilganini tasvirlaydi.

Koʻrinadiki, kitobxon diqqatni jalb etuvchi tugun, fikr va tuygʻularni tasvirlab bera olgan.

Az hajri tu koram iztirob ast imshab,  
 Chon az payi raftan ba shitob ast imshab,  
 Tanro zi firoq pech-u tob ast imshab,  
 Daryob, ki kori dil xarob ast imshab.

Tahlili:

Kalit soʻzlar: hajr, iztirob, firoq, imshab, pech-u tob, dil, xarob

Bu kecha senning hajringda ishim iztirob (chekish) boʻladi.

Betaqatlikdan (hatto) jonim chiqib ketishiga sal qoldi.

Ayriliqdan jism juda azobda qoldi.

Bu koʻngilning ahvoli qanchalik yomon

Boʻlganligini shundan ham bilsa boʻladi.

Bu “Mukammal asarlar” toʻplamidagi 11-ruboiy boʻlib, majoziy ishq mavzusida yozilgan. Unda toʻrtala misra ham oʻzaro qofiyalangan iztirob, shitob, pech-u tob, xarob). Shuning uchun sheʼr bu janrning taronayi ruboiy turiga kiradi. “Ast imshab” soʻzlari esa radif vazifasini bajaryapti.

**Tezis** ruboiyda aytilmoqchi bo'lgan mavzu bayon etilgan. Lirik qahramonning kechasi bilan iztirob chekib chiqani aks etilgan.

**Antitezis** birinchi misraga to'ldiruvchi misra bo'lib, betoqatlikdan hatto joni chiqib ketayotgani bayon etilgan.

**Moddayi ruboiy** to'rtinchi misrani qolgan misralar bilan bog'lovchi vazifada kelgan. Ayрилиqdan jism-u jonim azobda.

**Sintez** yakuniy misrada esa, bu ko'nglimning ahvoli juda yomonligi holimdan bilsa bo'ladi. Mazkur ruboiy ham oshiqona tarzda yozilgan., shoir lirik qahramon ichki dunyosini ishqning turli ruhiy kechinmalari bilan tasvirlaydi.

Dar bahri sirishkam, ki nuchum ast hubob,

Ne-ne, ki dar o'st ofarinish nobob.

Garduni bahr az kavkab chun dar tob

Aftoda ba soni sad ne dar girdob.

Tahlili:

Kalit so'zlari: hubob, gardun, kavkab

Yulduzlar ko'z yoshim daryosining mavjlaridir.

Yo'q-yo'q, bu hol(bunday ofarin ish) maqsadga muvofiq emas

(Bu ko'z yosh daryosining osmoni yulduzlar tufayli shu'lalanib,

Girdob bo'lmasa-da devorga aylanib (meni sendan to'sib qo'yadi)

"Mukammal asarlar" to'plamining 20-tomidan o'rin olgan 12-ruboiyning qofiyalanish tartibi a-a-a-a (hubob, nobob, tob, girdob) tarzda qofiyalangan bo'lib, bu janrning taronayi ruboiy turiga kiradi.

**Tezis** mubolag' san'atidan foydalanilgan, go'yoki lirik qahramonning ko'z yoshlari ko'p oqqanidan yulduzlar mavjlanarkan.

**Antisintez** esa, ko'z yosh daryosidan hatto yulduzlar shu'la tarqatar ekan.

**Moddayi ruboiy** bu shu'la to'g'ri girdob emas, lekin mashuqa yuzini to'sayotgani aytib o'tadi.

**Sintez** uning yuzi ko'rolmayotganidan oshiq qiynaliyotgannini aytadi. Ruboiy ishqiy mavzuda yozilgan bo'lib, shoir so'z qo'llashda har bir detalni inobatga olgan. Masalan, yulduzlar shu'lanishi yoki uning shu'lasi yorug'ligidan oshiq mashuqa yuzini ko'rolmayotgani juda chiroyli tasvirlab bergan.

Biz Hazrat Navoiy ham nasriy, ham nazmiy asarlari juda mukammal tarzda yozilganiga yana bir bor amin bo'ldik. Hech bir so'zni u kishi shunchaki qo'llamaganlar, har bir so'z o'zining ilmiy asosiga ega. Shu sababli, necha ming yil o'tibdiki, Alisher Navoiy asarlari bilan yashab kelmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Navoiy.Asarlar.15tomlik.14-tomi.-Toshkent, G'afur G'ulom 1967.
2. SirojiddinovSh. Alisher Navoiy.Manbalarning qiyosiy tipologiyasi,tekstologiyatahlili,\_T:Akademnashr,2011
3. Is'hoqov Yo.Navoiy poetikasi,\_T:Fan,1983